



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI “O‘ZKOMNAZORAT” INSPEKSIYASI

**B U Y R U G ‘ I**

2024-yil 23-oktabr

119- son

**O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi  
Axborotlashtirish va telekommunikasiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi  
Jamoatchilik kengashini tashkil qilish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 4-martdagi PF–6181-son, “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrda PF–269-son farmonlari hamda “Davlat organlari huzurida Jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ–3837-son qaroriga muvofiq, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikasiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Inspeksiya) Jamoatchilik kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida, **buyuraman**:

**1. Quyidagilar:**

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi Jamoatchilik kengashining tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi Jamoatchilik kengashi reglamenti 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:**

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolar, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlari talablari ijrosini ta’minlash;

Inspeksiya zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga dahl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish;

ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlash uchun Inspeksiyaning fuqarolar bilan bog'lab turadigan ko'priklarni bajarish;

Inspeksiya faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Inspeksiya faoliyatining ochiqqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

faoliyat bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Inspeksiya xodimlari oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlari, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek lavozimidan ozod etilgan yoki pensiyaga chiqqan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan Jamoatchilik kengashi takliflarini Inspeksiya rahbariyatiga kiritish.

3. Boshliq o'rinbosari va maslahatchilari, boshqarma va bo'limlar, shuningdek, hududiy bo'linmalar rahbarlari Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalaridan kelib chiqib, har yarim yil yakunida Jamoatchilik kengashiga muhokama qilinishi yuzasidan takliflar kiritib borsin.

4. Axborot xizmati (R. Masharipova) Jamoatchilik kengashining faoliyati bo'yicha takliflarni umumlashtirib, Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari puxta o'tkazilishi hamda qabul qilingan qarorlar va ularning ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni Inspeksiyaning veb-saytiga joylashtirib borilishini ta'minlasin.

5. Inspeksiyaning 2021-yil 30-iyundagi 208-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish boshliq o'rinbosari J.Chorshanbiyev zimmasiga yuklansin.

**Boshliq**



**A.Abdullayev**